

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI VA UNING JAMIYATGA TA'SIRI**Xasanova Asila**

Qarshi Xalqaro Universiteti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirishning ahamiyati tahlil qilingan. Ekologik tarbiyaning erta yoshdan boshlanishi zarurligini asoslab bergan hamda bu jarayonning ta'lim tizimidagi o'rni va istiqbollari e'tibor qaratgan. Shuningdek, maqolada ekologik ong va madaniyatning jamiyat hayotiga ta'siri, ularning ijtimoiy va madaniy muhitdagi o'rni xolisona yoritilgan. Teoretik manbalar tahlili, ta'limiy tajribalar va mavjud dasturlar asosida olib borilgan tadqiqotlar asosida dolzarb xulosalar chiqarilgan. Maqola boshlang'ich ta'lim sohasida faoliyat yuritayotgan pedagoglar, metodistlar hamda ekologik ta'lim bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar uchun foydali bo'lishi mumkin.

Kalit so'zlar: ekologik madaniyat, boshlang'ich ta'lim, ekologik tarbiya, ijtimoiy ong, ekologik muhit, barqaror rivojlanish.

Аннотация: В данной статье проанализирована важность формирования экологической культуры у учащихся начальных классов. Обоснована необходимость экологического воспитания с раннего возраста, а также уделено внимание роли и перспективам данного процесса в системе образования. Кроме того, статья объективно освещает влияние экологического сознания и культуры на общественную жизнь, их место в социальном и культурном окружении. На основе анализа теоретических источников, образовательного опыта и существующих программ проведены актуальные выводы. Статья может быть полезна педагогам начального звена, методистам и специалистам, занимающимся экологическим образованием.

Ключевые слова: экологическая культура, начальное образование, экологическое воспитание, социальное сознание, экологическая среда, устойчивое развитие.

Abstract: This article analyzes the importance of forming environmental culture among primary school students. The necessity of environmental education from an early age is substantiated, with attention given to its role and prospects within the education system. Additionally, the article objectively highlights the impact of environmental awareness and culture on societal life, as well as their place within the social and cultural environment. Based on the analysis of theoretical sources, educational practices, and existing programs, relevant conclusions are drawn. The article may be useful for primary education teachers, methodologists, and specialists involved in environmental education.

Keywords: *environmental culture, primary education, environmental education, social awareness, environmental environment, sustainable development.*

Atrof-muhitning tobora ifloslanib borayotgani, global ekologik muammolarning kuchayishi va iqlim o‘zgarishlarining jadallashuvi insoniyatdan ekologik ong va mas’uliyatni yuqori darajada shakllantirishni talab qilmoqda. Bunday muammolarning yechimi, avvalo, jamiyat a’zolarining ekologik madaniyatiga bevosita bog‘liqdir. Ayniqsa, bu borada ta’lim tizimi, xususan, boshlang‘ich ta’lim bosqichi muhim o‘rin egallaydi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirish mavzusi o‘z mohiyatiga ko‘ra tarmoqli, kompleks yondashuvni talab qiluvchi masalalardan biridir. Chunki aynan shu davrda bolalarda dunyoqarash, qadriyatlar va muomala me’yorlari shakllanadi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, ekologik muammolarni chuqur anglay oladigan va tabiatga ongli munosabatda bo‘ladigan avlodni tarbiyalash bugungi kun ta’limining ustuvor vazifasiga aylanmoqda. Shu boisdan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirish masalasi ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan o‘rganishga loyiq dolzarb yo‘nalishdir.

Tadqiqotning maqsadi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirishning samarali yo‘llarini aniqlash hamda bu jarayonning jamiyatga ta’sirini tahlil qilishdir.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Ekologik madaniyat tushunchasining nazariy asoslarini o‘rganish;
2. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ekologik tarbiya metodikasini aniqlash;
3. Amaldagi o‘quv dasturlaridagi ekologik komponentlarni tahlil qilish;
4. Ekologik madaniyatni shakllantirishning ijtimoiy ta’sirini baholash.

Tadqiqot obyekti — boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ta’lim-tarbiyasi jarayoni.

Tadqiqot predmeti — boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirishga qaratilgan pedagogik usullar, shakl va vositalar tizimi.

So‘nggi yillarda ekologik tarbiya, barqaror rivojlanish, yosh avlodda ekologik ongni shakllantirish masalalariga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar soni ortib bormoqda. Bu holat, bir tomondan, ekologik inqirozning kuchayishi, ikkinchi tomondan esa, ta’lim orqali unga yechim topishga bo‘lgan intilish bilan izohlanadi. Avvalo, ekologik madaniyat tushunchasining nazariy asoslarini o‘rgangan olimlar – I. D. Zverev, N. A. Ryznikova, V. A. Yasvin kabi tadqiqotchilar ekologik tarbiyani inson ma’naviyatining ajralmas qismi sifatida ko‘rsatganlar. Zverevning fikricha, ekologik tarbiya – bu atrof-muhitga ongli

munosabatni shakllantirish orqali barqaror ijtimoiy rivojlanishni ta'minlovchi muhim pedagogik jarayondir. Mahalliy olimlar orasida M. Nazarov, Z. Abdurahmonova, S. Jo'rayevlarning ilmiy ishlarida ekologik tarbiyaning mazmuni, metodik asoslari va yoshga mos yondashuvlar haqida keng tahlillar keltirilgan. Jumladan, Z. Abdurahmonova o'z tadqiqotlarida maktabgacha va boshlang'ich ta'lim bosqichida bolalarning tabiat bilan bevosita muloqoti ekologik ongni rivojlantirishda muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi.

Pedagogik adabiyotlarda boshlang'ich ta'limda ekologik tarbiyani amalga oshirishda o'yin texnologiyalari (A. Raxmonov), integratsiyalashgan darslar (G. Eshmatova), loyihaviy faoliyat (N. Shodmonova) kabi yondashuvlarning samarali ekanligi isbotlangan. Ayniqsa, G. Eshmatovanning tadqiqotlarida ona tili, atrofigimizdagi olam, texnologiya fanlarini o'zaro bog'lagan holda ekologik mavzularni yoritish bolalarda tabiiy muhitga nisbatan qiziqish uyg'otishini ta'kidlaydi. Shuningdek, ekologik tarbiyaning ijtimoiy-ta'limiy muhiti bilan bog'liqligini o'rgangan zamonaviy tadqiqotchilar (T. N. Qudratova, A. Karimova) ekologik madaniyatni shakllantirishda oilaning, maktabning va jamiyatning hamkorligi muhim ekanini ko'rsatganlar.

Mavjud adabiyotlarda ekologik tarbiya va madaniyatga oid nazariy asoslar yetarlicha ishlab chiqilgan bo'lsa-da, aynan boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan metodlar, pedagogik texnologiyalar va ularning jamiyatga ijobiy ta'siri masalalari chuqurroq yondashuvni talab qiladi. Shu jihatdan, ushbu maqola mavjud ilmiy qarashlarni boyitadi va yangi izlanishlarga zamin yaratadi.

Chet el adabiyotlari tahlili ham ekologik madaniyatni shakllantirish masalasining global miqyosda dolzarb ekanini ko'rsatadi. UNESCO va UNEP kabi xalqaro tashkilotlarning ta'lim bo'yicha hisobotlarida (UNESCO, 2020; UNEP, 2019) barqaror rivojlanish uchun ta'lim (Education for Sustainable Development – ESD) g'oyasi ilgari surilib, ayniqsa boshlang'ich ta'lim bosqichida ekologik qadriyatlarni shakllantirish zarurligi ta'kidlanadi. Jan Holland, David Orr va Fritjof Capra kabi taniqli pedagog va ekologlar o'z asarlarida inson va tabiat o'rtasidagi uyg'unlikni tiklashning yagona yo'li – bu ekologik ongni bolalikdan boshlab rivojlantirish ekanligini isbotlagan. Orr (2004) ta'lim tizimida ekologik savodxonlikni alohida fan emas, balki barcha fanlarga singdirilgan yondashuv orqali berishni taklif etadi. Shuningdek, amerikalik tadqiqotchi Louise Chawla (2006) o'z izlanishlarida bolalarning ekologik qadriyatlarga ega bo'lishida erta yoshdagi tabiat bilan bo'lgan amaliy tajribalar va hissiy taassurotlar hal qiluvchi rol o'ynashini ko'rsatadi.

Finlyandiyada olib borilgan tadqiqotlar (Palmer & Suggate, 2004) esa ekologik tarbiyaning o'yinlar, ekskursiyalar, guruhli loyihalar orqali berilishi bolalarning ongida mustahkamroq aks etishini isbotlaydi. Yevropa va Shimoliy Amerika mamlakatlarida "Green School", "Eco-Schools" kabi dasturlar orqali bolalarda ekologik fikrlashni maktab

muhitidanoq shakllantirish tajribalari muvaffaqiyatli qo‘llanilmoqda. Bu dasturlar o‘quvchilarning ekologik muammolarni amaliy hal etishdagi ishtirokini oshirishga qaratilgan bo‘lib, ular o‘quvchilarning mas‘uliyat hissi va fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Bu manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ekologik madaniyatni shakllantirish bo‘yicha chet elda salmoqli ilmiy izlanishlar mavjud va ular bizning ta‘lim tizimimiz uchun metodik namuna bo‘la oladi. Shu bilan birga, har bir mamlakatning madaniy, ijtimoiy va psixologik xususiyatlari hisobga olinishi kerak, bu esa lokal yondashuvni ham muhim qiladi.

Tadqiqot Qarshi shahridagi 12-maktabning 3-sinf o‘quvchilari orasida olib borildi. Umumiy 30 nafar o‘quvchi ishtirok etdi. Tadqiqot jarayonida 2 nafar sinf rahbari va 3 nafar ekologiya fani o‘qituvchisi bilan hamkorlik qilindi, ular pedagogik metodlarni tatbiq etishda faol ishtirok etdilar.

Tadqiqot uch bosqichda o‘tkazildi:

Birinchi bosqichda ekologik madaniyat va pedagogik yondashuvlar bo‘yicha nazariy materiallar o‘rganilib, sinf va o‘quvchilar xususiyatlari tahlil qilindi;

Ikkinchi bosqichda o‘quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirishga qaratilgan interaktiv darslar va amaliy mashg‘ulotlar tashkil etildi;

Uchinchi bosqichda tadqiqot natijalari so‘rovnoma, test va kuzatuv orqali yig‘ilib, tahlil qilindi.

Tadqiqot metodlari:

- **Eksperiment** – eksperimental usul yordamida o‘quvchilarga ekologik madaniyatni oshirishga qaratilgan interaktiv darslar o‘tkazildi. Bu jarayonda pedagogik metodlar — muammoli o‘qitish, guruhlarda ishlash, loyihalar tayyorlash kabi usullar sinab ko‘rildi. Eksperiment davomida o‘quvchilarning ekologik bilimlari va xulq-atvori o‘zgargan yoki o‘zgarmaganligi kuzatildi. Eksperiment ikki bosqichda o‘tkazildi: boshlang‘ich (nazorat guruhi) va tajriba guruhi bilan solishtirish.

- **Kuzatuv** – kuzatuv usuli orqali o‘quvchilarning dars jarayonidagi ekologik faolligi va o‘rgangan bilimlarini amaliy qo‘llash holatlari qayd etildi. Pedagoglar o‘quvchilarning o‘zaro munosabati, ekologik muhitga munosabati, sinf ichidagi faol ishtirokini muntazam ravishda kuzatib bordilar va kuzatuv jurnali orqali ma‘lumotlarni qayd etdilar. o‘quvchilarning ekologik faoliyatini va dars jarayonidagi xulq-atvorini kuzatish;

- **So‘rovnoma** – o‘quvchilarning ekologik bilimlari, ong darajasi, tabiatga munosabati haqida ma‘lumot olish uchun ishlab chiqildi. Savollar oddiy va tushunarli qilib tuzildi, bu orqali o‘quvchilarning ekologik madaniyatga oid tushunchalari va kundalik hayotda ekologik qoidalarni qanday qo‘llayotgani aniqlandi. So‘rovnoma tadqiqotning boshlanishida va oxirida o‘tkazilib, o‘zgarishlar tahlil qilindi.

• **Test** – test usuli bilan o‘quvchilarning ekologik bilimlari darajasi aniqlandi. Testda ekologiya, atrof-muhitni asrash, energiya tejash kabi mavzular bo‘yicha qisqa va aniq savollar berildi. Test natijalari tajriba bosqichidan oldin va keyin olinib, o‘quvchilarning bilim darajasidagi o‘zgarishlar tahlil qilindi.

• **Intervyu** – muallimlar va ota-onalar bilan o‘tkazilgan intervyular orqali ekologik madaniyatni shakllantirish jarayonidagi muammolar va ularning yechimlari haqida kengroq ma’lumotlar olindi. Bu suhbatlarda ekologik tarbiyaning uyda va maktabda qo‘llanilishi, muallimlarning usullari va ota-onalarning fikrlari muhokama qilindi.

• **Analitik tahlil** – yig‘ilgan barcha ma’lumotlar – kuzatuv jurnali, test va so‘rovnoma natijalari statistika yordamida tahlil qilindi. Taqqoslash usuli bilan nazorat va tajriba guruhlarida o‘rtasidagi farqlar aniqlanib, ekologik madaniyat shakllanishining samaradorligi baholandi. Natijalar jadval va grafik ko‘rinishida ko‘rsatildi hamda tahliliy xulosalar chiqarildi.

Tadqiqotda foydalanilgan vositalar quyidagilar:

a) so‘rovnoma varaqalari va testlar, ular ekologik bilim va qiziqishlarni o‘lchashga mo‘ljallangan;

b) kuzatuv jurnali, pedagoglarning o‘quvchilardagi ekologik xulq-atvorni qayd etishi uchun;

c) multimedia vositalari va interaktiv ta’lim materiallari.

Tadqiqot davomida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirish jarayoni kuzatildi va uning samaradorligi baholandi. Eksperimentdan oldingi test natijalari va eksperiment yakunidagi ko‘rsatkichlar solishtirildi.

Eksperiment guruhi o‘quvchilarining ekologik bilim darajasi sezilarli darajada oshgani aniqlanmoqda. Eksperimentdan oldin bu guruhdagi o‘quvchilarning o‘rtacha bilim darajasi 44% ni tashkil qilgan bo‘lsa, tadqiqot yakunida bu ko‘rsatkich 75% ga yetdi. Bu esa ekologik madaniyatni shakllantirish uchun qo‘llangan pedagogik metodlarning samaradorligini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, o‘quvchilarning ekologik faollik darajasi ham ijobiy o‘zgarishlarni namoyon etdi. Eksperiment guruhi o‘quvchilarining ekologik faolligi sezilarli oshib, yuqori faollikka ega bo‘lgan o‘quvchilar ulushi 20% dan 65% gacha ko‘tarildi. O‘rta va past faollik darajasi esa tegishli kamaydi.

Nazorat guruhi esa faqat kichik o‘zgarish ko‘rsatdi. Ularning bilim darajasi 45% dan 48% gacha oshdi, ya’ni faqat 3% o‘sish kuzatildi. Bu esa o‘quvchilarga oddiy ta’lim jarayonida ekologik madaniyat shakllanishi sust bo‘lishini ko‘rsatadi.

Ushbu natijalar ekologik madaniyatni shakllantirishda amaliy pedagogik metodlarning ahamiyatini tasdiqlaydi. O‘quvchilarning faolligi va bilim darajasi oshishi, ularning atrof-muhitga nisbatan mas’uliyatini kuchaytiradi hamda ekologik ongni rivojlantiradi. Bu natija

nafaqat mahalliy, balki xalqaro ilmiy tadqiqotlar bilan ham mos keladi. Masalan, O‘zbekistonlik olimlar (X. Usmonov, 2020) tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlarda ekologik madaniyatni maktab yoshida shakllantirish orqali bolalarda atrof-muhitga bo‘lgan mas’uliyatni oshirish muhimligi ta’kidlangan. Shuningdek, tadqiqot davomida nazorat guruhi bilan solishtirganda, eksperiment guruhi o‘quvchilarining o‘zlashtirish darajasining sezilarli farq qilishi oddiy dars usullarining ekologik madaniyatni shakllantirish uchun yetarli emasligini bildiradi. Bu ham Usmonov (2020)ning natijalari bilan hamohang bo‘lib, unda an’anaviy dars usullarining ekologik bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirishga to‘sqinlik qilishi qayd etilgan.

Chet eldagi tadqiqotlarda ekologik madaniyatni shakllantirishda yoshlarning ijtimoiy faolligini rag‘batlantirish, ekologik loyihalarda ishtirokini oshirish katta ahamiyatga ega ekani ko‘p marotaba qayd etilgan (Anderson, 2018; Green, 2022). Bizning tadqiqotda esa, aynan boshlang‘ich sinf o‘quvchilari darajasida shu kabi tashabbuslarni qo‘llashda ba’zi cheklovlar mavjudligi aniqlanib, yosh yoshdagi bolalar uchun o‘yin va ijodkorlik asosida ekologik madaniyatni rivojlantirish yo‘llari muhimligi ta’kidlandi. Shu bilan birga, chet eldagi tadqiqotlar (Smith va boshq., 2021; Johnson, 2019) ham ekologik ta’limda interaktiv usullar va amaliy loyihalarning ta’lim samaradorligini oshirishda hal qiluvchi rol o‘ynashini ko‘rsatadi. Ularning fikricha, o‘quvchilarning ekologik faolligini oshirish uchun o‘zaro munosabat va amaliy tajribalar juda muhim.

Tadqiqot davomida ba’zi cheklovlar ham aniqlangan. Masalan, namunaviy guruhning o‘lchami nisbatan kichik bo‘lishi va faqat bir maktab sharoitida o‘tkazilishi natijalarning umumlashtirilishini cheklashi mumkin. Shu sababli, kelgusida bu mavzuda kengroq hududlarda va ko‘proq o‘quvchilar ishtirokida tadqiqotlar olib borilishi tavsiya etiladi.

Xulosa

Xulosa shuki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirishda amaliy va interaktiv usullar samarali natijalar beradi. O‘quvchilarning ekologik bilimlari, atrof-muhitga nisbatan mas’uliyat hissi va ekologik faolligi o‘quv jarayonida qo‘llanilgan loyihalar, guruh ishlari va tajribalar orqali sezilarli darajada oshdi. Shu bilan birga, ekologik madaniyatning shakllanishi nafaqat maktab muhitida, balki oilaviy va jamiyat ko‘maklashuvi orqali ham mustahkamlanadi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, ekologik madaniyatni shakllantirish jarayonida o‘quvchilarning o‘zaro muloqoti, guruhda ishlash ko‘nikmalari va ijodiy faoliyatlari muhim rol o‘ynaydi. Bu esa ularni ekologik muammolarni anglashga, ularni hal qilishga yo‘naltiradi va atrof-muhitga mas’uliyatli munosabatni rivojlantiradi. Shu bois, maktab ta’limida interaktiv va amaliy metodlarni keng qo‘llash zarurati yanada yaqqol namoyon bo‘ladi. Bundan tashqari, ekologik madaniyatni shakllantirish jarayonida ota-onalar va jamiyatning hamkorligi katta ahamiyatga ega.

Oilaviy tarbiya va ekologik ta’limning uyg’unligi bolalarning ekologik ongini yanada chuqurlashtiradi va ularning tabiiy muhitga bo’lgan hurmatini oshiradi. Umuman olganda, ekologik madaniyatni boshlang’ich sinflardan boshlab shakllantirish jamiyatda ekologik barqarorlik va tabiiy resurslarni muhofaza qilishda muhim omil bo’lib xizmat qiladi. Shu sababli, maktab dasturlariga ekologik ta’limni kiritish, pedagoglarning bu sohadagi malakasini oshirish va ota-onalarni bu jarayonga jalb etish istiqbolli yo’nalishlardir.

Tavsiyalar

1. Boshlang’ich sinf ta’lim dasturlariga ekologik madaniyatni mustahkamlovchi amaliy mashg’ulotlar va loyihalarni kiritish lozim. Bu o’quvchilarning ekologik bilimlarini amalda qo’llash imkonini yaratadi va ularni tabiiy muhitga hurmat bilan qarashga o’rgatadi.
2. Pedagoglarning ekologik ta’lim bo’yicha malakasini oshirish uchun maxsus kurslar tashkil etilishi kerak. Bu ularning ekologik mavzularni samarali o’rgatishlariga yordam beradi.
3. Ota-onalar va jamiyat bilan yaqin hamkorlikni yo’lga qo’yish zarur. Maktab va oila o’rtasida ekologik tarbiya bo’yicha axborot almashinuvi hamda birgalikdagi loyihalar o’tkazilishi tavsiya etiladi.
4. Yosh o’quvchilarni ekologik faollikka jalb qilish maqsadida ko’ngilli tashabbuslar va ekologik klublar tashkil etilishi mumkin. Bu ularning ekologik madaniyatini oshirishga katta ta’sir ko’rsatadi.
5. Maktablarda ekologik madaniyatni rivojlantirish bo’yicha doimiy monitoring tizimi joriy etilishi zarur. Bu ta’lim sifatini nazorat qilish va takomillashtirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Anderson, J. (2018). Environmental Education and Youth Engagement. *Environmental Research Journal*, 34(2), 123-138.
2. Green, L. (2022). Interactive Methods in Environmental Education for Children. *Journal of Pedagogical Studies*, 45(1), 56-72.
3. Karimov, S. (2019). Ekologik madaniyat va uning maktab ta’limidagi ahamiyati. *Ta’lim va Tarbiya*, 7(3), 45-52.
4. Miller, R., Johnson, P., & Lee, S. (2020). Family Influence on Environmental Awareness in Early Childhood. *Journal of Environmental Psychology*, 60, 101-112.
5. Tursunova, M. (2022). Boshlang’ich sinf o’quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirish usullari. *Pedagogika Ilmi*, 12(4), 78-89.
6. White, A., & Smith, K. (2017). The Role of Schools in Promoting Environmental Responsibility. *International Journal of Educational Research*, 50(5), 345-359.

7. Nasriddinov, O. (2021). Maktabda ekologik tarbiya samaradorligi. Ta'lim So'zi, 15(2), 22-30.
8. Brown, T. (2019). Early Childhood Environmental Education: Strategies and Outcomes. Journal of Early Education, 27(3), 88-101.
9. Davronov, I. (2020). Ekologik madaniyatni rivojlantirishda ota-ona va jamiyatning roli. O'zbekiston Pedagogik Jurnali, 9(1), 60-67.
10. Wilson, M., & Garcia, H. (2023). Developing Environmental Awareness in Primary School Children. Educational Review, 75(1), 112-129.